

Muzaffarova Xayitgul

JDFU maxsus pedagogika kafedrası p.f.f.d (PhD)

Azimova Zebiniso

Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya)

mutaxassisligi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya: *Maqolada talaffuz buzilishlarni bartaraf etish uchun logopedik ta'sir lozimligi, logopedik ta'sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to'g'ri shakllantirish, nutq tovushlarini to'g'ri tiklash uchun zarur bo'lgan mashg'ulot ishlanmasi keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar. *Talaffuz, logoped, nutq, tovush, dislaliya, mashg'ulot, akustik, effect.*

Abstract: *The article mentions whether logopedic influence is necessary to eliminate pronunciation disorders, the main goal of logopedic influence, the development of training necessary for the correct formation of speech sounds and the correct restoration of speech sounds.*

Keywords. *Pronunciation, speech therapist, speech, sound, dyslalia, training, acoustic, effect.*

Talaffuz buzilishlarni bartaraf etish uchun logopedik ta'sir lozim. Logopedik ta'sirning asosiy maqsadi, nutq tovushlarini to'g'ri shakllantirishdir. Nutq tovushlarini to'g'ri tiklash uchun bola quyidagilarni bilishi lozim: nutq tovushlarini bilishi va ularni idrokida aralashtirib yuborishi kerak emas /bir tovushni ikkinchisidan akustik belgisi bo'yicha ajrata bilishi/; normal talaffuz qilingan tovushdan noto'g'ri talaffuz qilingan tovushni ajrata bilishi; o'zi talaffuz qilgan tovushni eshitib nazorat qila bilishi va sifatini baholashi; tovushni normal /effektini/ akustik effektini hosil qiluvchi artikulyatsion holatni bajara olishi; nutqning hamma turlarida tovushlardan o'rinli foydalanishi lozim.

Logoped bolani to'g'ri talaffuzga o'rgatishi uchun nihoyatda samarali yo'l topishi lozim. To'g'ri tashkil qilingan logopedik ish dislaliyaning boshqa turlarida ham samarali natijaga erishishga yordam beradi. Mexanik dislaliyaning bir qancha hollarida logopediya va tibbiyotning birgalikda yondashishi natijasida samarali muvaffaqiyatlarga erishiladi.

Logopedik ta'sirning muvaffaqiyatli shart sharoitlari talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun yaxshi sharoitlar yaratib beradi, ular logopedning bola bilan emotsional munosabatga kirishishi; mashg'ulotlarni qiziqarli shaklda tashkil qilish va charchashga yo'l qo'ymaydigan ish tizimida olib boorish hisoblanadi.

Logopedik mashg'ulotlar haftasiga uch marta muntazam ravishda o'tkaziladi. Ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida ham mashg'ulotlar o'tkazilishi lozim (logoped topshiriqlari asosida). Mashg'ulotlarni har kuni (kuniga 2 – 3 marta) 5 – 15 minutdan o'tkazish lozim.

Talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun didaktik materiallardan keng foydalanamiz. Talaffuzdagi kamchiliklarni bartaraf etish muddati bir qancha faktorlarga bog‘liq: nuqsonning murakkablik darajasiga, bolaning yosh va individual xususiyatiga, mashg‘ulotning muntazamligiga, ota-onalar tomonidan beriladigan yordamga. Oddiy dislaliyada mashg‘ulotlar bir oydan uch oygacha, murakkab dislaliyada esa uch oydan olti oygacha davom etadi. Maktab yoshidagi bolalarga qaraganda, bog‘cha yoshidagi bolalar talaffuzdagi nuqsonlar qisqa muddat ichida bartaraf etiladi, katta maktab yoshidagi bolalarga qaraganda esa kichik maktab yoshidagi bolalarda tezroq bartaraf etiladi. Logopedik ta’sir bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, har bir bosqichda logopedik ta’sir umumiy maqsadiga qarashli bo‘lgan aniq pedagogik masala yechiladi.

Tovush talaffuzi kamchiligi bor bolalar bilan nutq kamchiliklarini bartaraf etishda to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlarning ahamiyati kattadir. Mashg‘ulotlar qiziqarli, bolalarni diqqatini jalb qiladigan va o‘yin texnologiyalaridan foydalanilgan holda tashkil etilsa yanada samarali natijaga erishiladi. Shu maqsadda olib borilgan faoliyatimizda qo‘llangan mashg‘ulotlardan namuna keltirib o‘tamiz.

Mashg‘ulot ishlanmasi. Mavzu: Kim? Nima? - so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zlar

Maqsad: Ta’limiy: Kim? Nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan

so‘zlarni gaplarda, matnlarda ajratishga o‘rgatish.

Tarbiyaviy: Do‘stona munosabatlar, vatanga muhabbatni uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: Bolalarda fonetik–fonematik uquvini va umumlashtiruvchi so‘zlarni farqlash tushunchasini rivojlantirish.

Jihoz: Oyna, mashqlar rasmi, mavzuga doir mazmunli rasmlar, maqollar to‘plami.

Mashg‘ulotning borishi

1. Tashkiliy qism:

1) Salomlashish; 2) Davomat; 3) Fasl, kun, sana, ob-havoni so‘rash.

Takrorlash: O‘tgan mavzu bo‘yicha qisqacha savol – javob o‘tkazish:

1. O‘quv qurollariga nimalar kiradi? – kitob, ruchka, qalam
2. *Idish - tovoqlargachi?*
3. Qozon, likopcha, payola, choynak, kosa....
4. *Yovvoyi va uy hayvonlari?*
5. Ayiq, tulki, bo‘ri, qo‘y, ot, eshak...
6. *Ularning farqi nimada?*
7. Uy hayvonlari- uyda boqiladi.

Ularning terisi, go‘shiti, sutidan foydalanamiz. Yovvoyi hayvonlar – o‘rmonda yashaydi. Ular yirtqich bo‘ladi.

2. – *Barakalla.*

Keling, mashqlarimizni bajarib olamiz, doimgidek.

Lab mashqlari: “Devorcha”, “Xartumcha”, “Tabassum”.

Til mashqlari: “Arg‘imchoq”, “Tishtozalash”, “Ot”, “Bo‘yoqchi”.

3. Asosiy qism: Yangi mavzu e’lon qilinadi: Bugun biz siz bilan “Kim? Nima?” So’rog’iga javob bo’lgan so’zlar” haqida suhbatlashamiz.

- Shaxslarning bildirgan so’zlar Kim? so’rog’iga, narsalarni bildirgan so’zlar esa Nima? so’rog’iga javob bo’ladi. Masalan:

Ota	} Kim?	qalam	} Nima?
Uka		ruchka	
Anvar		non	
Ustoz		olma	

Bolalarga rasmlar ko’rsatiladi. Nomini aytadilar. Savol beradilar. Masalan:

O’qituvchi – Kim? Bobo – Kim?

Parta – Nima? Gul – Nima?

Rasmdagi shaxslarning kasbini aytish va ularga so’roq berish:

Oshpaz Bog’bon Usta Shifokor

(Kim?) (Kim?) (Kim?) (Kim?)

Kasblar haqida, ularning ish qurollari, ish joylari haqida suxbat.

4. Jismoniy daqiqa:

G’ozlar uchib keldilar,

Ko’lmakchaga qo’ndilar.


U yon, bu yon qarashib,

Yana uchib ketdilar.

5. Mustahkamlash:

“To’rtinchisi ortiqcha” o’yini

Qaysi biri ortiqcha



6. Yakunlash: Bugungi mashg’ulotimizda o’tilgan mavzular takrorlab olinadi, savollar bilan bilimlar tekshiriladi.

7. Uyga vazifa: Mazmunli rasmlar asosida ota–ona nazoratida gap tuzish. Shaxs va narsalarni tanib aytishga tayyorlanib kelish.

8. Baholash: “Barakalla”, rag ‘atli kartochkalar bilan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2011 y.
2. Muzaffarova, X. (2021). Bolalarda uchraydigan nuqsonlar va ularning kelib chiqish sabablari. *Scienceweb academic papers collection*.
3. Muzaffarova, X. (2020). Dizatriyani bartaraf etish bo'yicha olib boriladigan logopedik ta'sir tizimi. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
4. Muzaffarova X.N., Maktabgacha logopediya., O'quv qo'llanma//:Jizzax: «Ruhsora servis» nashryoti, 2021, 4-20 b.
5. Nurkeldiyeva D.A., Ayupova M.Yu., Ahmedova Z.M. Barmoqlar mashqi va logopedik o'yinlar. T.: «Yangi asr avlodi» 2017 y.